

Xatamov Boburjon Qosimjon o'g'li

“Oila va gender” ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

+998912061364

xatamovboburjon@gmail.com

Annotatsiya: *Odam jamiyatsiz ijtimoiylasha olmaydi. Inson shaxs sifatida ulg'ayar ekan uning hayotida turli insonlar bilan muloqot qiladi. Ulardan jamiyat, olam haqidagi tushuncha, fikrlarni o'zlashtiradi, taqlid qiladi o'rgangan qoidalariga amal qiladi yoki unga qarshi chiqib yangi qoidalar yaratadi. Inson ijtimoiylashuv jarayonida o'smirlik davri katta ahamiyatga ega. O'smirlik davrida o'smir hayotiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy agentlar oila, maktab, tengdoshlar, virtual olam vositalari kabi omillar mavjud.*

Kalit so'zlar: *o'smirlar, o'smirlik davri, ijtimoiylashuv, ijtimoiylashuv agentlari, oila, tengdoshlar, maktab, virtual olam vositalari, din, davlat muassasalari.*

XXI asr virtual olam vositlarining ommalashuvi natijasida odamlar orasida ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qildi. Bir tarafdin uzoqdagi do'st, tanishlar bilan xabarlashib turishda, o'z qiziqishlariga, dunyoqarashiga yaqin insonlar jamoasini toppish va u yerdagilar bilan fikr almashish, qiziqqan sohada tajrib to'plash kabi ijobiy omillarga ega bo'lsada lekin bu omillar ayni vaqtda o'zining salbiy jihatlarini ham namoyon qildi. Virtual olamdagi tanishlar bilan munosabat odamlarni haqiqiy hayotdagi odamlar bilan jonli muloqotning kamayishiga olib keldi. Ba'zi yoshlar real hayotdagi muloqot va munosabatlardan ko'ra virtual hayotdagi munosabatlarni afzal ko'rayotgani haqida turli tadqiqotlarni ko'rishimiz mumkin.

Ilmiy tadqiqotimizda biz o'smirlardan so'rovnoma olib yuqorida aytilganidek o'smirlarning ijtimoiy hayotidagi ijtimoiy agentlar bilan munosabatlarini o'rganib va bu munosabatlarga yoshi katta avlod vakillari,

olimlarning fikrlari bilan solishtirib chiqdik. Ilmiy tadqiqotimizning asosiy muammosi bu – o‘smirlarning ijtimoiylashuv jarayoni. Ijtimoiylashuv inson hayotidagi muhim va ko‘p omillarni o‘z ichiga oluvchi jarayon hisoblanib, bu jarayonda inson atrof muhitga moslashish, jamiyat qoidalari bilan yashashni o‘rganadi. Agar moslasha olmasa jamiyat tomonidan qabul qilinmaslik, ruhiy kasallik, atrofdagi insonlar bilan turli konfliktlarga uchrashiga sabab bo‘ladi. O‘smir yoshida bola jamiyatning asosiy qadriyatlariga muvofiq yashashni o‘z shaxsiyatida sinab ko‘rishni boshlaydi. Turli hayotiy tajribalar o‘tkazadi va hayotida qilgan, ko‘rgan, eshitgan tajribalaridan atrofdagilarga nisbatan qanday muomala qilishni o‘rgana boshlaydi. Birorta ham inson o‘ziga boshqa insonlarning o‘tkazadigan ta’sirisiz mavjud bo‘la olmaydi va bu uning xulq-atvorida turli hayotiy davrlarda turlicha ifodalanadi¹. O‘smirning ijtimoiylashuv jarayonida ijtimoiy agentlar – o‘smir shaxsining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan odamlar va institutlarning o‘rni juda muhim hisoblanadi. Ijtimoiy agentlar sifatida biz o‘smir bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan va uning ijtimoiylashuviga ta’sir qiluvchi subyektlarni aytamiz. O‘smirning ijtimoiylashuviga ta’sir qiluvchi subyektlarga esa quyidagilar kiradi: oila, maktab, mahalla, qarindoshlar, tengdoshlar, ommaviy axborot vositalari, diniy tashkilotlar, davlatning yoshlar siyosatini yurituvchi organlari. Ularning har birining o‘smir ijtimoiylashuvida o‘ziga xos roli va funksiyalari mavjud.

Biz o‘z tadqiqotimiz natijalaridan kelib chiqib ularning bugungi kun O‘zbekistondagi holati haqidagi tahliliy ma’lumotlar va natijalarimizni ilmiy ommaga ulashmoqchimiz. Oila – o‘smir ijtimoiylashuvida asosiy va eng birinchi ijtimoiy agent. O.Brimning ma’lumotiga ko‘ra ijtimoiylashuv asosan, oilada shakllanadi². U yerda ota-ona, bobo-buvi, aka-opa va uka-singillar kabi yaqin qarindoshlar birlashmasidan hosil bo‘lgan a’zolar mavjud. O‘smir ijtimoiylashuviga yosh katta oila a’zolari ta’sir qilishi yoshi kichiklardan ko‘ra ancha ta’sirliroq. O‘smirlar oilasida o‘zlarining hayotidagi ilk tarbiyani, bilimlarni

¹ Smezler N. Sotsiologiya. –M., 1994. 215-b

² Brim O.G.J. Socialization through the life cycle // O.G.Brim, Iraud S. Wheeler (EDS)/Socialization after childhood. B.Y., 1977

o'zlashtiradilar. Oilasi jamiyat haqidagi bilimlarni, ijtimoiy normalarni, qadriyatlarni va ularga qanday javob berish kerakligi haqida xatti-harakatlarni o'rgatadilar. Oilada o'smir ijtimoiylashuv jarayonida yo'l qo'ygan xatolari uchun nasihat, o'git, vazifa, ayrim xollarda jazosini ham oladilar. O'smir yoshidagi bolaga eng yaqin insonlar bo'lgan ota-onaning roli kamayib boshqalarning roli ortib boradi. Ba'zan ota-ona va o'smir o'rtasida ziddiyatli vaziyatlar ham aynan o'smirlik davrida ko'proq kuzatiladi. Bunga o'smirning endi yosh bola emasligi u ham katta bo'lganligi va mustaqil qaror qilishga intilishi sabab bo'ladi. Bugungi virtual olam vositalari va virtual jamiyatlar ommalashgan vaqtda o'smirlar bilan ularning oilasi, ota-onalari o'rtasidagi munosabatlarga ta'sirini o'rganish, oilaning o'smir ijtimoiylashuvidagi rolini aniqlash maqsadida o'smirlardan quyidagi so'rovnomalarni oldik. "Siz hozirgi kunda ko'proq qayerdan yangi bilim va ma'lumot olyapsiz?" savoliga o'smirlar tomonidan berilgan javoblar ota-onamdan 39 foizi; ustozlarimdan 35,4 foiz; internet qidiruv tizimlari (google, yandexs...), ijtimoiy tarmoqlardagi shu sohaga oid guruhlar va uning a'zolaridan 13,1 foiz; do'stlarimdan 8,4 foiz; kitob va jurnallardan 2,4 foiz; masjid ahlidan 1,7 foiz chiqdi. Bu natija ota-onalarni hursand qilsa kerak, sababi hozirgi virtual olam vositalari ommalashgan davrda o'smirlar yangi bilim va ma'lumotlarni hali ham ota-onalaridan olayotganliklarini aytib o'tishgan. Lekin o'smirning yoshi katta bo'lgani sari bu foiz ko'rsatkichlari tushib borishi tabiiy hol agar aksi bo'lsa bu me'yorning buzilishi hisoblanar edi. A.G.Gresov "Ota-onalar va o'smirlar uchun amaliy psixologiya" kitobida o'smirlik davri mustaqilligi haqida shunday yozadi: "Biologik nuqtai nazardan o'smirlar butunlay katta odamga aylanadilar, lekin, jamiyatning nazarida ular hanuzgacha bola hisoblanadi. Oilada katta avlod vakillari o'smirlarga kichik bolaga muomala qilganday munosabatda bo'ladilar. O'smirlik davrida "bola buziladi" degan fikr, oldingi avlodlardan meros fikr ham hisoblanishini unutmazlik kerak³. Virtual olam vositlarining o'smirlar orasida ommalashuvi oilaviy munosabatlarga qanchalik ta'sir qilishini o'rganish maqsadida "Virtual olamdan (internet, ijtimoiy tarmoqlar, TV, Video o'yinlar)

³ Практическая психология для родителей и подростков. СПб.: «Питер», 2006 -160 с.

foydalanish oilangiz ahilligiga qanday ta'sir qilmoqda?" savolini berdik. Bu savolga berilgan javoblar: 15,4 foiz respondent "ijobiy, oilaviy munosabatlarimini mustahkamlayapti" deb; 16,2 foiz respondent "o'zaro oilaviy munosabatlarda yordamchi vosita holos" deb; 11,7 foiz respondent "salbiy o'zaro bir-birimizga kam vaqt ajratishimizga sabab bo'lyapti" deb; 11,2 foiz respondent "juda salbiy bir-birimiz bilan ziddiyatlarga, tortishuvlarga sabab bo'lmoqda" deb; 14,7 foiz respondent "ham ijobiy ham salbiy ta'sir qilmoqda" deb; 30,8 foiz respondentlar esa "bilmayman" deb javob berishgan. Bu savolga berilgan variantlarni uch qismga ajratib olsak bo'ladi: virtual olam vositalaridan foydalanish oilaviy ahillikka ijobiy ta'sir ko'rsatyapti – 38,9 foiz; virtual olam vositalaridan foydalanish oilaviy ahillikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda – 30,2 foiz; virtual olam vositalari oilaviy ahillikka ta'sirini aytishga qiynaladiganlar – 30,8 foiz, deb tavsiflasak bo'ladi. Demak oilaviy qadriyatlar ma'lum ma'noda o'smirlar orasida o'z qiymatini tushirib bormoqda. 30,2 foiz respondent oilasidagi o'zaro munosabatlarning yomonlashuviga omil sifatida virtual olam vositalaridan noto'g'ri foydalanish deb hisoblamoqdalar. Shuning uchun ham xalqimizda "Qush inida ko'rganini qiladi" maqoli bejizga aytilmagan.

Hozirgi kunda yoshlar haqiqiy hayotdagi uchrashuv, munosabatlardan ko'ra virtual olamdagi xabarlashuvlarni afzal ko'rayotgani haqida ma'lumot olish maqsadida quyidagi savolni ham savolnomaga kiritdik: "Siz uchun quyidagilardan qaysi biri ma'qul?" deyilgan savolga 3,9 foiz respondent "virtual olamda (ijtimoiy tarmoqdagi) do'stlarim bilan birga vaqt o'tkazish ma'qulroq"; 56,9 foiz respondent "real hayotdagi do'stlarim bilan vaqt o'tkazish ma'qulroq"; 39,2 foiz respondent "ikkisi ham men uchun ma'qul" degan javobni tanlaganlar. Bu natijalar bizga shuni ma'lum qiladiki, o'smirlarimiz orasida kam bo'lsada virtual olam jamiyatlarida o'zini qulaylikda his qiladigan o'smirlar bor. Ham haqiqiy hayotdagi ham virtual hayotdagi muloqot turini afzal biladiganlar 39,2 foizni, 56,9 foiz respondent esa haqiqiy hayotdagi do'stlari bilan vaqt o'tkazishni ma'qul ko'rgan.

Virtual olamning uzoqdagi do'stlar bilan munosabatlarni mustahkam ushlab turishdagi o'rni sezilarli lekin me'yordan oshiqcha foydalanish haqiqiy

hayotdan chekinishga, virtual qaramlikni oshishiga va ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'siriga sabab bo'ladi.

Maktab o'smirning ijtimoiylashuvida o'ziga xos o'ringa ega. Maktabda o'smir tizimli bilim oladi, tengdoshlari va o'qituvchilari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishib muloqot qilish qobiliyati o'sadi. Fanlarni o'zlashtirish jarayonida tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Maktab o'z o'rnida o'smirga turli ijtimoiy vaziyatlarda qanday harakat qilish, suhbatdoshga qanday munosabatda bo'lish kabi bilim va ko'nikmalarni, ijtimoiy rollarni, shaxslararo munosabatlarni o'rgatadi va shaxsiy rivojlanishga yordam beradi. So'rovnomamizda "Siz hozirgi kunda ko'proq qayerdan yangi bilim va ma'lumot olyapsiz? deb bergan savolimizga 35,4 foiz respondent ustozlarimdan variantini, 8,4 foiz respondent do'stlarimdan deb jaavob berganlar. Demak o'smir ijtimoiylashuviga ta'sir bor bo'lgan yangi bilim va ma'lumotlarni 43,8 foizga yaqini maktab ijtimoiy agentlaridan qabul qilinmoqda. Bu ham ijobiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi, sababi ustozlardan olingan yangi bilim va ma'lumotlar shaxs rivojlanishiga bevosita ijobiy ta'sir qiluvchi bilimlar hisoblanadi. Xalqimiz orasida "Ustozi yo'q bolani ustoz shayton bo'ladi" naqli bejizga aytilmagan. Hozirgi kun yangi pedagogik metodlar ham dars jarayonida aynan o'zlashtirishi, ijtimoiylashuvi pastroq bo'lgan bolalarni gapirtirishga, darsda faolroq ishtirokini oshirishga qaratilgan.

O'smirning ijtimoiylashuvida uning tengdoshlari ham katta ta'sirga ega. Tengdoshlar o'smir "men"ning shakllanishida, o'z-o'zini hurmat qilish, qiziqishlarini shakllanishida, hayotiy qadriyatlarini o'rnatishda muhim ta'sir kuchiga ega. O'smirlik davrida bola ota-onasidan yashiradigan ko'p sirlarini aynan tengdoshi bilan bo'lishadi. O'zaro maslahatlashib hayotiga ta'sir qiluvchi muhim qarorlarni birgalikda qabul qilishadi. Albatta, bu tengdoshlar o'sgan oilaviy muhit yaxshi bo'lsa, o'smirga ham bu tengdoshlari ijobiy ta'sir qiladi, aksi bo'lsa aksincha salbiy. Shuning uchun ham xalqimizda "Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi", "Menga do'stingni kimligini ayt, men seni kimligingni aytaman" kabi maqol topib aytilganiga iqror bo'lamiz.

Virtual olam vositalari bugungi globallashgan va taraqqiy etgan zamoni ijtimoiy tarmoqlar, mobil o'yinlar, internet, TV, radiolarsiz tasavvur qilish qiyin bola tarbiyalashda ham bu vositalarning o'rni katta. O'smir jamiyat haqidagi ko'plab tushunchalarni bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, OAV.lar orqali olmoqda. Virtual olamdan ko'p va maqsadsiz foydalanish inson ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir qilib, "virtual muloqotning shaxs psixologiyasiga ta'siri natijasida emotsional barqarorlikning frustratsion tolerantlik va vaqtni, fazoni idrok qilish ko'nikmasining past darajada namoyon bo'lishi asosida kuchayishiga ko'ra, talabalar auditoriyasida internetga qaramlikning dinamik tarzda ortishi asoslangan⁴". Agar me'yorida, to'g'ri, foydali va qiziqarli kontentlar yaratilib bular yoshlar orasida ommalashsa ularning o'smir ijtimoiylashuv jarayonidagi o'rni katta. Bugungi kunda yoshlar virtual olam vositalari orqali ta'lim platformalarida masofaviy ta'lim olishmoqda, o'zlari qiziqqan sohadagi ma'lumotlarni tez vaqt ichida topishga erishmoqdalar, qiziqqan sohalarida virtual jamiyatlarga qo'shilmoqdalar va boshqa bir qancha foydali jihatlari mavjud. Ota-onalar bola tarbiyasiga oid ko'plab videolar, videodarslar, podkastlar, layfhaklarni virtual olamdan topishlari mumkin. Bir qancha afzalliklariga qaramay virtual olam vositalarining ham zararli ta'sirlarini sedan chiqarmaslik zarur. Virtual olam vositalari o'smirga juda katta axborotlarni taqdim etadi. Ular orasida o'smir uchun foydalilari qatorida zararli kontentlar ham to'lib yotibdi. Bugungi kunda deyarli barcha turdagi jinoyatlarning faol yordamchisi ham virtual olam bo'lib qoldi. Sababi virtual olamda anonimlik xususiyati jinoyatchi, firibgarlarga juda qo'l keladi. Jamiyat haqida yaxshi bilimga ega bo'lmagan, ishonuvchan o'smirlar esa ularning tuzog'iga ilinishi oson. Z.T. Saliyeva fikriga ko'ra, dunyo hamjamiyati miqyosida shaxsga doir sifatlarning an'anaviy modellari va ananaviy turmush tarzidan ularni modernizatsiyasi tomon sezilarli o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. "Shaxsning individual, o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini tashkillash sifatlari va qobiliyatlari, dunyoqarash va madaniy kenglik, bag'rikenglikning

⁴ B.S. Shukurov diss.avtoreferati "Talabalarda internet tobeligini keltirib chiqaruvchi psixologik omillar va uni bartaraf etish yo'llari" 4-b.

ahamiyati ortib, shaxsning dinamik kasbiy, siyosiy va ijtimoiy-progressiv jarayonlarda kirishishini tormozlaydigan xulq-atvor stereotiplaridan voz kechish ro'y bermoqda"⁵. Virtual olam bir qancha jinoyat va deviant xulq-atvorlarning katalizatoriga aylanib qoldi. Masalan: giyohvandlik, millatchilik, diskriminatsiya, foxishalik, tuhmat, aldov, o'g'rilik, kiberzo'ravonlik kabilarni misol keltirish mumkin. Albatta, muvaffaqiyatsiz ijtimoiylashuv, ommaviy axborot vositalari, televizor yoki virtual olam ko'rinishlari internet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn video o'yinlar tomonidan bolaga juda kuchli salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'smirlarning virtual olamdagi faoliyatiga oid bir qancha savollarga tadqiqot davomida javob olindi va tahlil qilindi. Xususan, "Virtual olamda (internet, ijtimoiy tarmoq) tanishuv guruhlariga kirganmisiz?" savoliga berilgan javoblarda biz 29 foiz respondentlarning tanishuv guruhlariga ko'p bora kirganligini shuningdek, 29 foizi kam bo'lsa ham kirganligini bilib olishimiz mumkin. O'smirlar tanishuv guruhlariga real hayotda o'zlarini yolg'iz his qilganligidan virtual bo'lsada o'zi bilan fikr almashadigan do'st, sherik, qaram-qarshi jins vakilini qidirib kirishadi. "Hayotda ko'rishmagan, lekin internet, telefon orqali suhbatlashib turadigan tanishingiz bormi?" Savoliga 28,5 foiz (311 nafar) respondentlar "Ha" deb javob berishgan bo'lsa, 10,7 foiz (118 nafar) respondent "Bor edi, hozir yo'q" deb javob berishgan. 60,8 foiz respondentlar esa "Yo'q" deb javob berishgan.

O'smirlar o'rtasida virtual olam vositalaridan eng ko'p foydalaniladiganlari sifatida: Telegram, Instagram va You tube yuqori uchlikni egalladi. Aynan shu ijtimoiy tarmoqlar O'zbekiston hududida o'zining ko'plab foydalanuvchilariga ega.

O'smirlar ijtimoiylashuvida din va diniy tashkilotlarning o'rni ham katta hisoblanadi. Barcha dinlarda yaxshilik va yomonlik, gunoh va savob amallar haqida gap boradi. Bular esa qilinishi targ'ib qilingan va qilishdan qaytarilgan amallar, qoidalarga asoslanadi. O'z-o'zidan dinlar o'smirning ijtimoiylashuvida

⁵ Z.T.Salieva Pedagogika kolleji o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish – kasbiy ijtimoiylashtirish omili sifatida. Diss.. T., 2010. 9-b.

ota-onalar, do'stlar, virtual olam vositalari orqali bola qalbiga kirib borib uning xatti-harakatlariga ta'sir qiladi. Ayniqsa, O'zbekistonda keng tarqalgan va tarixi ko'p asrlarga borib taqaladigan Islom dinining bola ijtimoiylashuvidagi o'рни beqiyosdir. Eng kamida jamoat nomozlari bilan dinimiz bolani odamlarga qo'shilishga, odamlar tomonidan yetkaziladigan jabr-sitamlarga sabr qilib, yordamga muhtojlarga doim yordam qo'lini cho'zishga buyuradi. Dinimiz balog'atga yetgan erkaklarni jamoat bo'lib namoz o'qishga buyuradi va targ'ib qiladi. Islom dini boshqa dinlarga o'xshab tarkidunyochilikka chaqirmaydi aksincha dunyo ne'matlaridan bahramand bo'lib uning shukrini qilishni buyuradi.

Xulosa. Biz yuqorida o'smirning ijtimoiylashuviga katta ta'sir qiluvchi omillarni va ular asosida O'zbekistonning Samarqand, Toshkent, Farg'ona shaharlari o'smirlaridan olingan so'rovnomalar natijalari tahlilini berib o'tdik. Yuqoridagi o'smirning ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi omillarga qo'shimcha ravishda qarindoshlar, qo'shnilar, ish joyidagi hamkasblar (agar o'smir qayerdadir ishlasa), shifoxona hodimlari (agar o'smir kasal bo'lgan bo'lsa) kabilarni kiritishimiz mumkin. Lekin qolganlarining o'smir ijtimoiylashuviga ta'siri nisbatan kamroq. Bu hozirgi kunda o'smirlar kimlar bilan ko'proq gaplashayotgani, ularning ijtimoiy hayotga kirishishida qaysi ijtimoiy agentlar ko'proq rol o'ynayapti kabi savollarimizga javob bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Smezler N. Sotsiologiya. –M., 1994. 215-b
2. Brim O.G.J. Socialization through the life cycle // O.G.Brim, Iraud S. Wheeler (EDS)/Socialization after childhood. B.Y., 1977
3. Практическая психология для родителей и подростков. СПб.: «Питер», 2006 -160 с
4. B.S. Shukurov diss.avtoreferati "Talabalarda internet tobeligini keltirib chiqaruvchi psixologik omillar va uni bartaraf etish yo'llari" 4-b.
5. Z.T.Salieva Pedagogika kolleji o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish – kasbiy ijtimoiylashtirish omili sifatida. Diss.. T., 2010. 9-b.